

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**BAZAROVA DILDORA BAXADIROVNA**

**JINOYAT PROTSESSIDA SHAXS HUQUQLARINING  
PROTSESSUAL KAFOLATLARI**

12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquqi va sud ekspertizasi

**yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2022**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Science (DSc)**

**Bazarova Dildora Bahadirovna**

Jinoyat protsessida shaxs huquqlarining protsessual kafolatlari  
.....

**Базарова Дилдора Бахадировна**

Процессуальные гарантии прав личности в уголовном  
процессе.....

**Bazarova Dildora Bakhadirovna**

Procedural guarantees of individual rights in criminal proceedings .....

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**BAZAROVA DILDORA BAXADIROVNA**

**JINOYAT PROTSESSIDA SHAXS HUQUQLARINING  
PROTSESSUAL KAFOLATLARI**

12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquqi va sud ekspertizasi

**yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2022**

**UO‘K: 343.1 (043.5) (575.1)**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2017.2.DSc/Yu41 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)) joylashtirilgan.

**Rasmiy opponentlar:**

**Pulatov Baxtiyor Xalilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Raxmonova Surayyo Maxmudovna**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Murodov Baxtiyorjon Baxodirovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03. raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 16-yanvar kuni soat 14<sup>00</sup>da majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48, e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1097-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar Amir Temur ko‘chasi 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2022-yil 30-dekabr kuni tarqatildi.  
(2022-yil 30-dekabrda 11-raqamli reyestr bayonnomasi).

**N.S. Salayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

**M.M. Kurbanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**M.K. Urazaliev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda siyosiy jarayonlarning globallasuvi, demokratiyaning rivojlanishi, inson huquqlarini himoya qilishning kuchayishi, fuqarolarning qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustuvorligi sharoitida shaxs huquqlarining jinoiy-protsessual kafolatlarini ta'minlash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi xavfsizlik bo'yicha dunyoda 39-o'rinda, jinoyatchilik bo'yicha 104-o'rinda turgan bo'lsa, Qatar, Birlashgan Arab Amirliklari va Tayvan xavfsizlik indeksida birinchi o'rinlarda bormoqda<sup>1</sup>. Jinoyat ishlarni ko'rib chiqishda shaxs huquqlarini mustahkamlash orqali mamlakatimiz xavfsizlik ko'rsatkichlarini yaxshilash bu sohadagi eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

Jahonda bugungi kunda jinoyat protsessida fuqarolar huquq va erkinliklari hamda manfaatlarining ta'sirchan va ishonchli muhofaza qilinishini ta'minlash, yangi shakl va tartib-taomillarini kiritish orqali jinoyat protsessual shakllarni soddalashtirish, jinoyat ishlari bo'yicha sudgacha va sud jarayonida qonuniylikni ta'minlashga to'sqinlik qiluvchi holatlarni bartaraf etish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jinoiy protsessi boshqa ishtirokchilarining xarajatlarini tejash, sud-tergov faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy qilish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dissertatsiya mavzusi bilan bog'liq holda jinoyat ishini sud muhokamasiga qadar kelishuv orqali hal etish, ayblanuvchi bilan o'z aybiga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzish va shu tariqa jazodan ozod qilish yoki uni yengillashtirish, jinoyat ishini ko'rib chiqishda oqilona muddatlarga rioya qilish prinsipini kengaytirish, jinoyat ishlarini yurituvchi organlar tomonidan ishda ishtirok etayotgan shaxslarga nisbatan noqonuniy harakatlar uchun aybdorlik prinsipini joriy etish, guvohlarni himoya qilish dasturini amalga oshirishda ularni chet elda yashash joyi bilan ta'minlash, jinoyat protsessi ishtirokchilari shaxsini oshkor qilmaslikka oid jihatlarni tadqiq etish muhim ahamiyatga kasb etmoqda.

Respublikamizda jinoyatlarni tergov qilishda qonuniylikni mustahkamlash, tergov harakatlari va sud ishlarini faqat huquqiy maydon doirasida olib borish, jinoyat-protsessual tartib-qoidalarini soddalashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda, xususan aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzish, ko'rsatmalarni oldindan mustahkamlash, jabrlanuvchi va guvohni ularning hayoti, mol-mulki va oila-a'zolariga real tahdid bo'lgan taqdirda himoya qilishni ta'minlash amaliyoti joriy etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda har yili 90 mingga yaqin kishi jinoiy javobgarlikka tortilayotgan bo'lsa<sup>2</sup>, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi 2022 yilning 9 oyi davomida 56267 shaxsga nisbatan 43787 ta jinoyat ishi ko'rib chiqilganligini, ulardan 677 tasi oqlangan va reabilitasiya qilinganligini qayd etgan<sup>3</sup>. Bundan tashqari, 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida jinoyat,

<sup>1</sup> CrimeIndexbyCountry 2022 Mid-Year // [https://www.numbeo.com/crime/rankings\\_by\\_country.jsp](https://www.numbeo.com/crime/rankings_by_country.jsp)

<sup>2</sup> <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice>

<sup>3</sup> <https://sud.uz/uz/2010-4/>

jinoyat-protsessual va jinoyat-ijroiya qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, insoniylik tamoyilini jinoiy jazolarni qo'llash tizimiga keng joriy etish va ularni amalga oshirish, qiynoqlarning oldini olish bo'yicha profilaktika mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu yo'nalishda maxsus qonun qabul qilish ko'zda tutilgan<sup>4</sup>. Shu sababli, jinoyat protsessida shaxs huquqlarini ta'minlash sohasida kompleks ilmiy tadqiqotlar o'tkazish davr talabidir.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi (1994), O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (1994), O'zbekiston Respublikasining "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi (2019), "Sudlar to'g'risida"gi (2021) qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni (2022), "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3723-son Qarori (2018) va ushbu sohadagi boshqa qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>5</sup>.** Jinoyat protsessida shaxs huquqlarining protsessual kafolatlari masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar yetakchi xorijiy tadqiqot markazlari va xalqaro tashkilotlar, shu jumladan University of Pennsylvania Carey Law School, Indiana University Robert H. McKinney School of Law, University of California, University of San Francisco, School of Law, New York University School of Law, Harvard Law School (AQSh), Canadian Bar Association (Kanada), University of Haifa (Isroil), Rossiya ichki ishlar vazirligi boshqaruv Akademiyasi, Rossiya ichki ishlar vazirligining Qozon yuridik instituti, Samara davlat universiteti (Rossiya Federasiyasi) tomonidan olib borilmoqda.

Jinoyat protsessida shaxs huquqlarining protsessual kafolatlari bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari asosida quyidagi natijalar olindi: advokatura xodimlarining etikasiga oid jihatlar tadqiq etilgan (University of San Francisco – School of Law), jinoyat protsessida advokat ishtirokining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan (University of California), advokatning himoya ostidagi shaxs bilan munosabatlari va advokatlik sirlariga rioya qilish kafolatlari o'rganilgan (Canadian

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.

<sup>5</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar <https://www.law.upenn.edu/>, <https://mckinneylaw.iu.edu/>, <https://www.universityofcalifornia.edu/>, <https://www.usfca.edu/law/>, <https://www.law.nyu.edu/>, <https://hls.harvard.edu/>, <https://www.cba.org/Home>, <https://www.haifa.ac.il/?lang=en>, <https://xn--80a.xn--b1aew.xn--p1ai/>, <http://eioskuimvd.ru/>, <https://ssau.ru/> va boshqa manbalar asosida amalga oshirilgan.

Bar Association), advokatning jinoyat protsessida ishtirok etish huquqlarining kafolatlari asoslab berilgan (Indiana University Robert H. McKinney School of Law), dastlabki qamoq va aybdorlik prinsipi tadqiq etilgan (University of Pennsylvania Carey Law School), aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuvni tan olish va jabrlanuvchi huquqlarini himoya qilish muammolari tahlil qilingan (Harvard Law School), aybga iqrorlikning axloqiy tomoni va kelishuvni tuzish istiqbollari o'rganilgan (University of Haifa), sudyalarning mustaqilligini ta'minlash usuli sifatida o'zaro tiyib turish va muvozanatni saqlash tizimi qoidalari ishlab chiqilgan (New York University School of Law), alohida tartibdagi sud jarayonida aybsizlik prezumpsiyasi prinsipini amalga oshirishga oid jihatlar tahlil etilgan (Rossiya ichki ishlar vazirligi boshqaruv Akademiyasi), aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuvni ixtiyoriy ravishda tuzish shartlari asoslab berilgan (Samara davlat universiteti), jazo tayinlashda jabrlanuvchining fikrini hisobga olish masalalari (Rossiya ichki ishlar vazirligining Qozon yuridik instituti) o'rganilgan.

Jinoyat protsessida shaxs huquqlarining protsessual kafolatlari bo'yicha bir qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementasiya qilish orqali shaxs huquqlarining protsessual kafolatlarini kengaytirish; jinoyat-protsessual shakl va shaxs huquqlarini ta'minlashning o'zaro nisbati, chegarasini aniqlash; jinoiy ta'qibdan voz kechish shartlarini aniqlashtirish; jazo tayinlashda mutanosiblik prinsipini amalda ta'minlash va boshqalar.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jinoyat protsessida shaxsning protsessual huquqlarini ta'minlashga oid ilmiy izlanishlar G. Abdumajidov, Z. F. Inogomjonova, G. Z. To'laganova, U. A. To'xtasheva, K. K. Matkarimov, M. Maxbubov, F. M. Muxitdinov, D. R. To'raeva, N. N. Haydarov, N. N. Xayriev, N. M. Kushaev, B. B. Murodov, Sh. F. Fayziev, B. B. Xidoyatov, S. M. Achilov, I. B. Djuraev kabi milliy protsessual olimlar tomonidan muayyan darajada olib borilgan<sup>6</sup>.

Jumladan, S. M. Achilov jinoyat protsessida jabrlanuvchi huquqlarining himoyasini kuchaytirish masalalarini, I. B. Djuraev jinoyat ishini yuritishda til prinsipini ta'minlashga oid jihatlarni, Z. F. Inogomjonova va G. Z. Tulaganova jinoyat protsessi ishtirokchilari bilan bog'liq umumiy qoidalarni, K. K. Matkarimov guvoh immunitetini ta'minlash masalalarini, F. M. Muxitdinov jinoyat-protsessual shakllarni, D. R. Turaeva jinoyat protsessida jabrlanuvchi huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash masalalarini, N. N. Xaydarov esa gumon qilinuvchining protsessual maqomiga oid jihatlarni alohida tadqiqot sifatida o'rganganlar.

Jinoyat protsessida shaxs huquqlarining kafolatlari masalalari S. V. Yashin, Yu. B. Chupilkin, A. S. Gerasimenko, V. Ye. Fedorin, M. I. Usarov, S. M. Trashkova, A. A. Teregulova, S. A. Tabakov, A. A. Slavgorodskix, M. S. Kesaeva, D. M. Popov, O. L. Podustova, N. O. Nikuradze, G. A. Nafikova, D. R. Gimazetdinov, S. G. Machixin, V. I. Kushnerev, Ye. A. Markina, N. S. Manova, S. A. Kurushin, O. I. Mamina, N. N. Isaeva, D. A. Ivanov, O. S. Zabalova, N. S. Yermishina, O. V. Gladisheva kabi xorijlik olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

<sup>6</sup> Ushbu olimlar ilmiy ishlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

Jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari masalalarini o'rgangan uzoq xorijdagi protsessual olimlar orasidan Adam M. Gershowitz, Brian M. Murray, Andrew Manuel Crespo, Juan Cianciardo, Ajit Kaushal, Jeanne Lemasurier, Juan Carlos Gavara de Cara, Karolina Kremens, Elaine Koren, Manuel Medina Guerrero, Yvonne Daly, Anna Pivaty, Diletta Marchesi, Peggy ter Vrugt kabi tadqiqotchilarni alohida ajratib ko'rsatish zarur.

Jinoyat protsessual huquqi sohasidagi yuqoridagi olimlar jinoyat protsessi ishtirokchilarining protsessual holati, ularning huquq va majburiyatlari, xususan jinoyat ishida ishtirok etish uchun jalb qilishning ayrim masalalarini tadqiq etishgan. Biroq zamonaviy liberal yangiliklar, shu jumladan protsessual shaklni soddalashtirish nuqtai nazaridan jinoyat protsessida shaxs huquqlarining kafolatlari kompleks o'rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksini va uni amaliyotda qo'llashni takomillashtirish muammolari" mavzusidagi ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** jinoyat protsessida shaxs huquqlarini ta'minlash muammolari bo'yicha kompleks ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar o'tkazish hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

jinoyat protsessida shaxs huquqlarining protsessual kafolatlari tizimini kompleks tadqiq etish;

jinoyat ishlarini yuritishda shaxs huquqlarini ta'minlashga oid konseptual tushunchalar va ta'riflarni o'rganish;

shaxs huquqlarining protsessual kafolatlari tizimi rivojlanishi va shakllanishi tarixini o'rganish;

jinoyat-protsessual shaklning jinoyat protsessida shaxs huquqlarini ta'minlashga ta'sirini aniqlash;

himoya tomonida bo'lgan shaxslar: gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, fuqaroviy javobgar, ularning qonuniy vakillari huquqlarining protsessual kafolatlarini tahlil qilish;

ayblov tomonida bo'lgan shaxslar va ularning qonuniy vakillari huquqlarining protsessual kafolatlarini tahlil qilish;

jinoyat protsessida haqiqatni aniqlashga ko'maklashuvchi shaxslar huquqlarining kafolatlari doirasini tadqiq etish;

kasbiy faoliyatini amalga oshirishda sudyalarning huquqlarining kafolatlari doirasini, shuningdek ularning mol-mulki va yaqin qarindoshlarini himoya qilish muammolarini o'rganish;

O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'yekti** jinoyat protsessida shaxs huquqlarining protsessual

kafolatlari bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimidir.

**Tadqiqotning predmeti** jinoyat protsessida shaxs huquqlarining kafolatlari bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek jinoyat protsessida shaxs huquqlarini lozim darajada ta'minlashga oid huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy davlatlarning qonunchiligi va amaliyoti hamda yuridik fan va ilmiy-nazariy qarashlardagi konseptual yondashuvlardan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot olib borishda tarixiy, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy, rasmiy-mantiqiy, huquqiy-mantiqiy, tizimli tahlil kabi usullar qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

O'zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqib ketish, jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishni istisno qiladigan og'ir va davomli kasallikka chalingan hollarda ishni sudga qadar yuritish bosqichida guvoh va jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogar)ning ko'rsatuvlarini oldindan mustahkamlab qo'yish tartibi va asoslari belgilanishi lozimligi asoslangan;

aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv tuzishning muayyan shartlari mavjudligi, xususan bunda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi o'z harakatlarining mohiyatini hamda berilgan iltimosnomaning oqibatini anglab yetishi, iltimosnoma ixtiyoriy ravishda va ishda ishtirok etayotgan himoyachi bilan maslahatlashuvlar o'tkazilganidan keyin berilganligi inobatga olinishi lozimligi asoslangan;

tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash uchun asoslar mavjud bo'lsa, shuningdek shaxs tomonidan bir nechta jinoyat sodir etilgan hollarda aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv tuzilishi mumkin emasligi asoslangan;

tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar xodimlari tomonidan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchidan ko'rsatuvlar olish surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudyaning yozma ruxsatiga asosan faqat himoyachi ishtirokida amalga oshirilishi hamda gumon qilinayotgan shaxsni ushlab turish muddati haqiqatda ushlangan vaqtdan hisoblanishi lozimligi asoslangan;

shaxs amalda ushlangan yoki uni jinoyat ustida ushlab bilan bog'liq tezkor tadbir amalda yakunlangan yoxud gumon qilinuvchi deb e'tirof etilganligi haqidagi qaror unga ma'lum qilingan paytdan boshlab u bilan bog'liq protsessual harakatlarni o'tkazishdan oldin uning advokat bilan xoli uchrashishi ta'minlanishi shartligi asoslangan;

tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov organlari xodimlari tomonidan shaxsni g'ayriqonuniy harakatlar sodir etishga undash natijasida olingan ma'lumotlar sud hukmida dalil sifatida tan olinmasligi, shuningdek ushlangan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining yaqin qarindoshlarini protsess ishtirokchisi sifatida jalb qilish uchun asoslar mavjud bo'lmagan hollarda ularni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chaqirish va so'roq qilish taqiqlanishi lozimligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

zamonaviy O'zbekistonda protsessual shaklni soddalashtirish va shu bilan birga unga qarama-qarshi ba'zi protsessual harakatlarni murakkablashtirish tendensiyasi kuzatilayotganligi asoslantirilgan;

sudgacha bo'lgan bosqichda jinoiy ta'qib emas, balki dalillarni o'rganish hal qiluvchi omil bo'lishi zarurligi va shu sababli sudgacha bo'lgan bosqichda tergov sudbyasi institutini joriy etish taklif etilgan;

asoslantirilmagan va shubhali sabablar bilan mavjud holatlarni istisno etganda jinoyat ishini cho'zmasdan, o'z vaqtida ko'rib chiqish maqsadida jinoyat protsessual qonunini yangi prinsip – oqilona muddatlarga rioya qilish prinsipi bilan to'ldirish asoslantirilgan;

O'zbekiston Respublikasi JPKni Jinoyat-protsessual va Jinoyat kodekslarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan hollarda jinoiy ta'qibdan voz kechishni nazarda tutuvchi norma bilan to'ldirish zarurligi asoslantirilgan;

jinoyat protsessi ishtirokchilarining JPKda nazarda tutilgan huquqlarini amalga oshirish natijasida yuzaga kelgan salbiy to'xtamlar va xulosalar jinoyat protsessining mazkur ishtirokchilariga qarshi ishlatilishi mumkin emasligi bo'yicha jinoyat protsessual qonuni yondashuvini o'zgartirish taklif etilgan;

Jinoyat-protsessual kodeksida protsessual shaklni soddalashtirish, gumon qilinuvchi va ayblanuvchining huquqlari kafolatlarini kuchaytirish usuli sifatida yangi institut – aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv joriy etilishi lozimligi asoslab berilgan;

jinoyat protsessining faol va manfaatdor ishtirokchisi sifatida jabrlanuvchining huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustahkamlash bo'yicha qonunchilikka kompleks takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik va xalqaro huquq normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyoti, huquqshunoslar orasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomaning anketa, intervyu va ekspert so'rov shakllariga asoslangan, statistika ma'lumotlarini tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprotasiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan, olingan natijalar vakolatli davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalar kelgusidagi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, huquqni qo'llash amaliyotida, jinoyat-protsessual qonunchiligi normalarini sharhlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ulardan qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan, normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash hamda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayonida, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish hamda oliy yuridik ta'lim muassasalarida jinoyat-protsessual huquqi fanini o'qitishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Jinoyat protsessida shaxs huquqlarining protsessual kafolatlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqot bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ishni sudga qadar yuritish bosqichida O'zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqib ketishi, ularda jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishni istisno qiladigan og'ir va davomli kasallik mavjudligi kabi hollarda guvoh va jabrlanuvchi (fuqaroviy

da'vogar)ning ko'rsatuvlarini oldindan mustahkamlab qo'yish tartibi va asoslari belgilanishi lozimligi to'g'risidagi takliflar O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-675-son Qonuni bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan 121<sup>1</sup> va 121<sup>2</sup>-moddalarni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2021-yil 30-noyabrdagi 37-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi guvoh va jabrlanuvchi ko'rsatuvlarini oldindan mustahkamlab qo'yish jinoyat-protsessual huquqiga yangi institut sifatida kiritilishiga xizmat qilgan;

aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv tuzishning muayyan shartlari mavjudligi, xususan bunda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi o'z harakatlarining mohiyatini hamda berilgan iltimosnomaning oqibatini anglab yetishi, iltimosnoma ixtiyoriy ravishda va ishda ishtirok etayotgan himoyachi bilan maslahatlashuvlar o'tkazilganidan keyin berilganligi inobatga olinishi lozimligi haqidagi taqliflar O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-675-son Qonuni bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan 586<sup>1</sup>-moddaning ikkinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2021-yil 30-noyabrdagi 37-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv tuzilishi mumkin bo'lgan holatlar va shartlarni belgilashga xizmat qilgan;

tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash uchun asoslar mavjud bo'lsa, shuningdek shaxs tomonidan bir nechta jinoyat sodir etilgan hollarda aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv tuzilishi mumkin emasligi haqidagi takliflar O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-675-son Qonuni bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan 586<sup>1</sup>-moddaning uchinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2021-yil 30-noyabrdagi 37-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv tuzilishi mumkin bo'lmagan holatlar qonunchilikda aniq belgilanishiga xizmat qilgan;

tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar xodimlari tomonidan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchidan ko'rsatuvlar olish surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudyaning yozma ruxsatiga asosan faqat himoyachi ishtirokida amalga oshirilishi hamda gumon qilinayotgan shaxsni ushlab turish muddati haqiqatda ushlangan vaqtdan hisoblanishi lozimligi haqidagi takliflar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-avgustdagi "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6041-son Farmonining 2-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Yuridik ta'minlash boshqarmasining 2022 yil 10 oktyabrdagi 12/21-76-son-

dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tomonidan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchini asossiz so‘roq qilishni oldini olishga, shuningdek shaxsni ushlab turish muddatini hisoblash vaqtini aniqlashtirishga xizmat qilgan;

shaxs amalda ushlangan yoki uni jinoyat ustida ushlab bilan bog‘liq tezkor tadbir amalda yakunlangan yoxud gumon qilinuvchi deb e’tirof etilganligi haqidagi qaror unga ma’lum qilingan paytdan boshlab u bilan bog‘liq protsessual harakatlarni o‘tkazishdan oldin uning advokat bilan xoli uchrashish ta’minlanishi shartligiga oid takliflar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-avgustdagi “Sudtergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6041-son Farmonining 2-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2021-yil 26-noyabrdagi 27/2-286-21-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning qabul qilinishi ushlab vaqtida shaxsning advokat bilan ta’minlanish huquqi kafolatlanishiga va shaxsning bunday huquqqa ega bo‘lish vaqti belgilanishiga xizmat qilgan;

tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov organlari xodimlari tomonidan shaxsni g‘ayriqonuniy harakatlar sodir etishga undash natijasida olingan ma'lumotlar sud hukmida dalil sifatida tan olinmasligi, shuningdek ushlangan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining yaqin qarindoshlarini protsess ishtirokchisi sifatida jalb qilish uchun asoslar mavjud bo‘lmagan hollarda ularni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chaqirish va so‘roq qilish taqiqlanishi lozimligi oid takliflar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-avgustdagi “Sudtergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6041-son Farmonining 4-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2021-yil 26-noyabrdagi 27/2-286-21-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi qonunchilik darajasida tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov organlari xodimlari tomonidan shaxsni g‘ayriqonuniy harakatlar sodir etishga undash bilan bog‘liq harakatlar taqiqlanishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, xususan, 7 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 36 ta ilmiy ish, jumladan 2 ta monografiya va ilmiy jurnallarda 20 ta ilmiy maqola (ulardan 5 tasi xorijiy nashrda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 246 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (doktorlik dissertatsiyasi annotasiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va ahamiyati, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi,

dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'yekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobeasiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritib berilgan.

*"Jinoyat protsessida shaxs huquqlari protsessual kafolatlarining nazariy va huquqiy asoslari"* deb nomlangan dissertatsiyaning birinchi bobida jinoyat protsessida shaxs huquqlarini ta'minlashning protsessual kafolatlari tushunchasi, mohiyati, ahamiyati va tizimi, O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessida shaxs huquqlarining protsessual kafolatlari tizimining genezisi va hozirgi holati, shaxs huquqlarini ta'minlashda jinoyat-protsessual tamoyillar va ular bilan bog'liq jinoyat-protsessual shakl tahlil qilinadi.

Milliy (K.K.Matkarimov, U.A.Tuxtasheva, Z.F.Inogomjonova, G.Z.Tulaganova) va xorijiy protsessual olimlarning (S.M.Trashkova, S.V.Yashin, O.V.Fedotova, R.R.Seroglavov, E.A.Markina, L.M.Volodina) pozitsiyalarini o'rganish asosida muallif jinoyat protsessida shaxs huquqlarining protsessual kafolatlarining quyidagi ta'rifini ishlab chiqdi: jinoyat ishini yuritishda qatnashuvchi barcha ishtirokchilarning faoliyatida qonunlarga rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan jinoyat-protsessual va boshqa qonunchilik bilan o'rnatilgan shartlar, vosita va usullar, shuningdek ushbu ishtirokchilar tomonidan o'zlarining huquqlarini amalga oshirishga imkon beruvchi, odil sudlovni samarali amalga oshirishga va jinoyat protsessining boshqa maqsadlariga erishish uchun ularni har qanday noqonuniy va asossiz cheklashlardan muhofaza qiluvchi choralar majmui shaxs huquqlari protsessual kafolatlarining mazmunini tashkil etadi.

Dissertatsiyaga ko'ra, protsessual kafolatlarining mazmuni quyidagi mezonlar bilan belgilanadi: birinchidan, ular ishtirokchilarga JPKda nazarda tutilgan huquq va erkinliklarini amalga oshirishlari uchun munosib shart-sharoit yaratishga xizmat qiladi va haqiqatni aniqlashga yo'naltirilgan; ikkinchidan, ular jinoyat protsessida qonuniylik asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi va ishtirokchilarning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoyasini ta'minlaydi (noqonuniy va asossiz sudlanishdan, boshqa ishtirokchilarning g'ayriqonuniy harakatlaridan); uchinchidan, ular shaxslarga zarur himoyani, sud orqali himoyalani huquqini ta'minlaydi, o'zlarining huquqlarini himoya qilish uchun teng imkoniyatlarni yaratadi va bu orqali taraflarning tortishuvi uchun munosib sharoit yaratadi; to'rtinchidan, ular davlat organlari tomonidan jinoyat ishlarini yuritish maqsad va vazifalariga erishish uchun qonunda nazarda tutilgan barcha vakolatlar va tartib-qoidalarning amalga oshirilishi ta'minlaydi; beshinchidan, ular sud xatolarini minimal darajada kamaytirishga xizmat qiluvchi vosita hisoblanadi.

G.Ostafiychuk, A.V.Grinenko, S.Yu.Fransiforova, I.I.Tsiliurik, E.Ye.Zibart, S.N.Bratus, V.Ye.Fedorin, Yu.G.Ovchinnikov, A.A.Abramenko, R.R.Seroglavov kabi protsessualist olimlarning pozitsiyalarini tahlil qilgach, muallif protsessual

kafolatlarining ikkita katta guruhini ajratib ko'rsatadi: umumiy protsessual kafolatlar (sud orqali himoyalani huquqi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar mansabdor shaxslari protsessual harakatlari (qarorlari) yoki harakatsizligi ustidan shikoyat qilish kafolatlari (JPKning 27-moddasi), himoyaga bo'lgan huquq bilan ta'minlanish kafolatlari (JPKning 24-moddasi), jinoyat ishlarini yuritish prinsiplari (JPKning 11-27-moddalari), o'zboshimchalik bilan shaxsning shaxsiy daxlsizligini cheklashni taqiqlash (JPKning 18-moddasi)) hamda maxsus protsessual kafolatlar (jinoyat haqida beriladigan ariza, xabarlarni qabul qilish tartibini belgilovchi protsessual shakl (JPKning 24-moddasi), protsessual harakatlar bo'yicha ish yuritish, qabul qarorlar ustidan shikoyat qilish va ularni bekor qilish (JPKning 328, 358, 381<sup>17</sup>, 405<sup>15</sup>, 497<sup>11</sup>, 499-moddalari)).

Shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish tamoyilini ta'minlash bo'yicha huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilib, dissertant uni qo'llashning samarali mexanizmi yo'q, degan xulosaga keldi. Moldova Respublikasi tajribasini o'rganish asosida muallif O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksini sudya, prokuror, tergovchi va surishtiruvchi tomonidan shaxsga nisbatan protsessual xatti-harakatlarni amalga oshirishda tazyiqlardan foydalanganligi to'g'risida shikoyat bilan murojaat qilish huquqi to'g'risidagi ayblilik prezumpsiyasi bilan to'ldirishni taklif qiladi.

Muallif Shveysariya, Moldova Respublikasi, Italiya, Belgiya qonunchiligini, jinoyat protsessida muddatlarni qo'llash bo'yicha inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi tomonidan ko'rib chiqilgan sud ishlarini o'rganib chiqib, ularni O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari va huquqni qo'llash amaliyoti bilan taqqoslab, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksini jinoyat-protsessual harakatlar muddatlarni uzaytirishga yo'l qo'yilmasligi, shaxs qamoq yoki uy qamog'ida saqlanayotgan bo'lsa, shuningdek voyaga yetmagan bo'lsa, sudda jinoyat ishlarini yuritish ustuvor va kechiktirib bo'lmaydigan tartibda ko'rib chiqilishi, jinoyat protsessi ishtirokchilarining sudga ishni tezlashtirish talabi bilan murojaati 5 kun ichida ko'rib chiqilishi nazarda tutuvchi oqilona muddatlarga rioya qilish prinsipi bilan to'ldirish zarurligi to'g'risida xulosaga keladi.

O'zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligi konsepsiyasi jinoyat protsessida ishtirok etayotgan shaxslarga jinoyatni o'z vaqtida ochish, jinoyat sodir etgan shaxslarni fosh etish va ularga nisbatan jazo tayinlash maqsadi doirasida ta'sir qiladi. Jinoyat qonunchiligida kam ahamiyatli qilmishlar; zaruriy mudofaa; oxirgi zarurat; ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab chog'ida zarar yetkazish; buyruqni yoki boshqacha tarzda vazifani bajarish; kasb yoki xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan asosli tavakkalchilik; jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo'rqitish natijasida va jinoyat tarkibi bo'lmagan taqdirda jinoiy ta'qibni to'xtatish holatlari nazarda tutilgan. Biroq ushbu qoidalar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida o'z aksini topmagan va shu munosabat bilan Shveysariya tajribasini o'rganish asosida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga bunday asoslar mavjud bo'lganda, jinoiy ta'qibdan voz kechish prinsipini kiritish taklifi ilgari surildi.

Dissertant AQSh, Argentina, Germaniya, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Italiya,

Fransiya, Belgiya, Daniya, Irlandiya, Gresiya, Lyuksemburg, Gollandiya, Portugaliya va Shveysariya kabi mamlakatlar tajribasini, shuningdek inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi (the European Court of Human Rights), inson huquqlari bo'yicha Amerikalalararo sud (the Inter-American Court of Human Rights)) va Yevropa Ittifoqi sudlari (the European Court of Justice) "strictosensu" (mutanosiblik) toifasini qo'llash to'g'risidagi faoliyati tamoyillarini o'rgangan holda, shuningdek ularni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqqoslash asosida va 2021-yil 5-dekabrda turmush o'rtog'ini o'ldirishga majbur bo'lgan fuqaroga nisbatan jinoiy ishini o'rganib chiqib, sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishga nomuvofiq majburlov va protsessual javobgarlik choralari tayinlash taqiqlanishini nazarda tutuvchi jinoyat protsessida shaxs huquq va erkinliklarini cheklashning mutanosibligi prinsipini milliy qonunchilikka kiritish zarurligi to'g'risida xulosaga keladi.

Muallif O'zbekiston, Germaniya, Fransiya, Shveysariya, Koreya Respublikasining jinoyat-protsessual qonunlarini qiyosiy tahlil qilish asosida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining normalarini qayta ko'rib chiqish va texnik xarakterdagi qoidalarni istisno qilish yoki ularni minimal darajagacha kamaytirish, shuningdek hujjat aylanishida yagona yondashuvni yaratish maqsadida protsessual qonunlarning texnik dizaynini tartibga solish uchun idoraviy xarakterdagi normativ hujjatlarni qabul qilish lozimligini ta'kidlaydi.

Dissertantning ta'kidlashicha, jinoyat protsessining sudga qadar bosqichida jinoiy ta'qib emas, balki dalillarni o'rganish hal qiluvchi omil bo'lishi kerak. Shundan kelib chiqib, jinoyat protsessining sudga qadar bosqichida tergov sudyasi institutini joriy qilish taklif qilindi. Chunki uning mustaqil sud tizimiga mansubligi haqiqatan ham sudgacha bo'lgan bosqichda sud himoyasi amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning "*Jinoyat protsessida o'z manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslar huquqlarining protsessual kafolatlari*" deb nomlangan ikkinchi bobida jinoyat protsessida o'z manfaatlarini himoya qilayotgan gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar, sudlanuvchilar, fuqaroviy javobgarlar, jabrlanuvchilar va fuqaroviy da'vogarlar, ishtirokchilarning qonuniy vakillari va qarindoshlarini huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishning protsessual kafolatlari o'rganiladi.

Dissertantning fikricha, "gumon qilinuvchi huquqlarining protsessual kafolatlari" deganda, jinoyat sodir etganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, ammo bu uni ayblanuvchi tariqasida ishga jalb etish uchun yetarli bo'lmagan shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlovchi, shuningdek mansabdor shaxslarning shu yo'nalishdagi vazifa va majburiyatlarini anglatuvchi birlashgan tizimli normalar tushuniladi.

Dissertant O'zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunini, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakti tahlil qilib, aybsizlik prezumpsiyasi nafaqat O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 23-moddasida nazarda tutilgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchiga, balki har qanday shaxsga nisbatan qo'llanilishi kerak, degan xulosaga keldi.

Shuningdek, muallif huquqni qo'llash amaliyotini o'rganib chiqib, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov organlari xodimlari tomonidan shaxsni g'ayriqonuniy harakatlar sodir etishga undash natijasida olingan ma'lumotlar sud hukmida dalil sifatida tan olinmasligi; ushlangan gumon qilinuvchining yoki ayblanuvchining yaqin qarindoshlarini protsess ishtirokchisi sifatida jalb qilish uchun asoslar mavjud bo'lmagan taqdirda, ularni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chaqirish va so'roq qilishni taqiqlashni taklif etiladi.

Dissertantning ta'kidlashicha, shaxs amalda ushlangan paytdan boshlab yoki jinoyat sodir etilgan joyda ushlanishi bilan bog'liq tezkor-qidiruv tadbiri amalda yakunlanishidan boshlab, u bilan bog'liq protsessual harakatlar amalga oshirilgunga qadar himoyachi bilan holi uchrashuv o'tkazilishi kerak. Shaxsni ushlab turish muddatini amalda u haqiqatda ushlangan vaqtdan boshlab, ya'ni uning erkin harakatlanish huquqlari amalda cheklangan paytdan boshlab hisoblashni taklif qiladi.

Xalqaro-huquqiy normalar hisoblangan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt, Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi, Qiynoq va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazo turlaridan himoya qilish to'g'risidagi Deklaratsiya, Qiynoq va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazo turlariga qarshi Konvensiya, Jinoyat qurbonlari uchun odil sudlovning asosiy tamoyillari Deklaratsiyasi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining voyaga yetmaganlarga nisbatan Odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq minimal standart qoidalari (Pekin qoidalari), Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Konvensiyalarni tahlil qilish asnosida jinoyat protsessida shaxs huquqlariga rioya qilishning asosiy minimal talablari O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual qonunchiligida nazarda tutilganligini ta'kidlanadi.

AQShda "aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv" (97% hollarda qo'llaniladi) institutini amalda qo'llashning ijobiy tajribasiga asoslanib, dissertatsiya bunday institutni milliy qonunchilikda joriy etishni taklif qiladi. Bunday institutning joriy etilishi jinoyatni tergov qilish va umuman jinoyat ishini ko'rib chiqish muddatlarini qisqartiradi, shuningdek ishni tezroq ko'rib chiqish va unga nisbatan adolatli jazo tayinlash, ba'zi huquqlaridan voz kechish hisobiga ishda ishtirok etayotgan shaxslar uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

Fuqaroviy javobgarining maqomini o'rganib chiqib, dissertant gumon qilinuvchi va ayblanuvchi bilan bir qatorda bu shaxs ham gumon va ayblovni rad etish maqsadiga egaligini, shuning uchun fuqaroviy javobgarga nisbatan aybsizlik prezumpsiyasi qoidalarini qo'llash zarur degan xulosaga keladi.

Amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq jinoyat ishi bo'yicha jabrlanuvchilar sifatida faqat jismoniy shaxs tan olinadi. Vaholanki, moddiy va nomoddiy zarar yuridik shaxsga ham yetkazilishi mumkin bo'lsa-da, ammo huquqni qo'llovchi organlar yuridik shaxslarni faqat fuqaroviy da'vogar sifatida jalb qiladi. Rivojlangan mamlakalarning qonunchiligida yuridik shaxslarni ham jabrlanuvchi sifatida ishga jalb qilish mumkin. Dissertant bu qoidani milliy qonunchilikka kiritish zaruratini asoslab beradi.

Dissertant tergovchiga shaxsni ayblanuvchi sifatida jalb qilish to'g'risidagi qaror nusxasini jabrlanuvchiga taqdim etish va surishtiruvchiga esa ayblov xulosasi yoki ayblov qaror nusxasini jabrlanuvchiga taqdim etish majburiyatini yuklashni taklif qiladi, shundan kelib chiqib, so'roq davomida qo'yilgan ayblovga yoki jabrlanuvchining ko'rsatilgan ayblovga roziligini (yoki noroziligini) ifodalashi kerak. Bunday holda, jabrlanuvchi o'zi tomonidan berilgan iltimosnomalarni asoslashi, mansabdor shaxslar uning huquqlarini buzgan taqdirda shikoyat qilishi, shuningdek jabrlanuvchining huquqlari va qonuniy manfaatlariga ta'sir qiluvchi boshqa protsessual ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirishni talab qila olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Qonuniy vakil va uning vakolatlari to'g'risida mushohoda qilinarkan, dissertant tomonidan voyaga yetmaganning qonuniy vakiliga qaysi paytdan boshlab jinoyat ishida ishtirok etishiga ruxsat berilishi kerakligini tushuntirish zarurligini asoslaydi va ushbu vaqtni advokat jinoyat ishida ishtirok etishga kirishgan vaqtdan boshlab deb belgilashni taklif etadi.

Dissertatsiyaning *“Odil sudlovga ko'maklashuvchi va jinoyat protsessida kasbiy faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslar huquqlarini amalga oshirishning protsessual kafolatlari”* deb nomlangan uchinchi bobida jinoyat protsessida shaxs huquqlarini ta'minlash mexanizmining elementi sifatida guvohlar, xolislar, mutaxassislar, ekspertlar, sudyalalar, advokaturaning protsessual faoliyati, surishtiruv va dastlabki tergov organlari huquqlarini amalga oshirishning protsessual kafolatlari ko'rib chiqiladi.

Guvohning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashda qonun chiqaruvchi tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida, dissertantning fikriga ko'ra, jinoyat-protsessual qonunida guvohning qaysi jinoyat ishi bo'yicha guvoh sifatida jalb qilinganini bilish huquqini nazarda tutish maqsadga muvofiq.

Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada, Italiya, Buyuk Britaniya, Rossiya Federasiyasining guvohlarni himoya qilish dasturi bo'yicha qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganib chiqib, dissertant tomonidan milliy qonunchilikni himoya qilinayotgan shaxsning shaxsiy ma'lumotlarini oshkor qilmaslik, ya'ni himoya qilinayotgan shaxsning shaxsiy ma'lumotlari butun jinoyat protsessi davomida va u tugagandan so'ng ham shaxsi oshkor qilinmasligi, sud majlisida guvohlik berishda jinoyat protsessining barcha ishtirokchilari guvohni vizual kuzatishiga yo'l qo'yilmasligi, himoya qilinayotgan shaxslarning roziligi bilan yoki ularning iltimosiga binoan guvohlar boshqa vaqtinchalik yoki doimiy yashash joyiga, boshqa vaqtinchalik yoki doimiy ishga (xizmatga) yoki boshqa o'qish joyiga, shu jumladan O'zbekiston Respublikasidan tashqariga ko'chirilishi mumkinligi to'g'risidagi normalar bilan boyitishni taklif qiladi.

Xolislar jinoyat protsessida protsessual harakatlarni amalga oshirishga yordam beruvchi shaxs sifatida ishtirok etadi va muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi. Biroq ularning huquq va majburiyatlari ancha bahsli masala. Masalan, xolisning tergov harakatida ishtirok etishi jinoyat-protsessual qonunida ham huquq, ham majburiyat sifatida ko'rsatilgan. Protsessual harakatlarni amalga oshirishda

xolislar ishtirokidagi huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilgan holda, shaxsning xolis sifatida ishtirok etishi sub'yektiv sabablarga ko'ra imkonsiz bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi, xususan hodisa joyini ko'zdan kechirayotganda shaxslarning murdalarni ko'rishni istamasligi, ekskumasiya paytida chirigan murdaning hididan ko'ngli aynishi va boshqa sababga ko'ra. Bunday holda, ishtirok etish majburiyat sifatida tushunilganda, shaxs ishtirok etishni rad eta olmaydi. Shuning uchun dissertant tomonidan xolisning tergov harakatlarida ishtirok etish majburiyatini chiqarib tashlashni va unda faqat bunday huquqni qoldirishni taklif qiladi. Ushbu huquq bilan shaxs protsessual harakatda qatnashishdan bosh tortishi mumkin bo'ladi.

Protsessual harakatlarni amalga oshirishda xolislarining ishtirok etishi to'g'risidagi Rossiya Federasiyasi qonunchiligini tahlil qilib, shuningdek O'zbekiston Respublikasining ushbu yo'nalishdagi huquqni qo'llash amaliyotini o'rgangan holda, dissertant protsessual harakatlarni amalga oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni hamda protsessual harakatda ishtirok etish uchun xolislarini jalb qilishning iloji bo'lmagan hollarda, xususan bu ularning hayotiga xavf tug'dirsa, tergov harakati bayonnomasida xolislarini jalb qilish mumkin emasligi sabablari ko'rsatilgan holda ularning natijalarini qayd etishni taklif qiladi.

Jinoyat ishida ishtirok etuvchi va odil sudlovni amalga oshirishga yordam beruvchi shaxslarning yana bir toifasi jinoyat-protsessual qonunchiligiga muvofiq farqlash nisbatan qiyin bo'lgan ekspertlar va mutaxassislardir. Dissertatsiya muallifining ta'kidlashicha, mutaxassis jinoyat ishiga turli xil ekspertizalar tayinlashdagi maqsad kabi tekshiruv o'tkazish uchun emas, balki jinoyat protsessiga kasbiy faoliyat bilan bog'liq ravishda unga ma'lum bo'lgan ob'yektlar to'g'risida vakolatli xulosalar chiqarish uchun ishtirok etishga jalb qilinadi. Mutaxassisning xulosalari shunchaki zarur maxsus bilimlarga ega shaxsning fikrlaridir, mantiqdagi fikr "predmet va uning belgisi o'rtasidagi bog'liqlikni tasdiqlaydigan yoki inkor etadigan tafakkur shakli"dir.

Dissertantning ta'kidlashiga ko'ra, sudyalarning mustaqilligining protsessual kafolatlari jinoyat-protsessual qonunida nazarda tutilgan qoidalar, vositalardan iborat bo'lib, ular jinoyat ishini yuritish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi, sudyaga jinoyat ishi bo'yicha protsessual qarorlarni qonunga va o'zining ichki ishonchiga ko'ra erkin va mustaqil ravishda qabul qilishga imkon beradi, shuningdek sudyani jinoiy javobgarlikka tortishning alohida tartibi belgilanganligini nazarda tutadi.

Dissertantning ta'kidlashicha, mamlakatimiz jinoyat-protsessual qonunchiligiga ko'ra himoyachi vazifasini bajaruvchi advokat sudga qadar ish yuritishda himoya pozitsiyalarini asoslash uchun mustaqil ravishda ma'lumot to'plash va ularni dalil sifatida taqdim etish bo'yicha real protsessual imkoniyatlarga ega emas, xususan bu holat sud tomonidan shaxsning huquq va erkinliklarini jiddiy cheklashga qaratilgan protsessual majburlov yoki ehtiyot choralari qo'llanilayotganda ham kuzatiladi.

Dissertatsiyaning "*Jinoyat protsessida shaxs huquqlarini himoya qilishning protsessual kafolatlari*" deb nomlanuvchi to'rtinchi bobida jinoyat protsessida

shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash mexanizmi elementi sifatida prokuror va sud nazorati, idoraviy nazorat, jamoatchilik nazorati tadqiq etiladi.

Dissertantning fikricha, O'zbekiston uchun eng zarur yangi o'zgarishlardan biri bu tergovga qadar tekshiruv organlari, surishtiruvchilar, tergovchilar va prokurorlarning harakatlari va qarorlari ustidan sudga shikoyat qilishning protsessual tartibi joriy etilishidir. Ushbu yangilik 2018-yilda qabul qilingan Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasida nazarda tutilgan. Biroq bunday shikoyat berish tartibi Jinoyat-protsessual kodeksiga hali kiritilmagan. MDH doirasida mazkur tartib O'zbekistondan tashqari Belorusiya va Turkmanistonda ham mavjud emas. MDHning boshqa mamlakatlarda sudgacha ish yurituvchi organlarining harakatlari va qarorlari ustidan sudga shikoyat qilishning quyidagi modellaridan foydalanilishini ta'kidlash zarur:

– sudga faqat shikoyat prokuror tomonidan oldindan ko'rib chiqilgan va shikoyat qiluvchi shaxs ko'rib chiqish natijalaridan qoniqmagan hollarda shikoyat berish mumkin. Masalan, bunday tartibni Armaniston, Moldova, Tojikistonda kuzatish mumkin;

– prokurorga ham, to'g'ridan to'g'ri sudga ham parallel ravishda shikoyat qilish imkoniyati. Shu bilan birga, ba'zi mamlakatlarda sud predmet bo'yicha shikoyatlarning ayrim toifalarini ko'rib chiqadi. Xususan, bu Ozarbayjon, Rossiya, Qozog'iston Jinoyat-protsessual kodekslarida nazarda tutilgan;

– shikoyatni faqat sudga (tergov sudyasiga) berish. Bunday tartib, masalan, Ukrainaning Jinoyat-protsessual kodeksida mustahkamlangan.

Shundan kelib chiqib, dissertant jinoyat protsessining sudgacha bo'lgan bosqichida shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun tergov sudyasi institutini joriy etish taklifini ilgari suradi.

Dissertant xalqaro ekspertlarning fikriga tayanib, kelajakda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarining ishonchli kafolatlarini yaratishni ta'minlaydigan xalqaro huquq standartlarga muvofiq jinoyat protsessi muammolarini hal qilishda prokuraturaning roli, o'rnini va ahamiyatini tubdan oshirishga imkon beradigan O'zbekistonda prokuratura faoliyatini takomillashtirish bo'yicha asosiy tavsiyalarning mazmunini sinchkovlik bilan o'rganish maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi. Xalqaro ekspertlar prokuratura organlarini shakllantirish tartibi, xodimlarni tanlash, joylashtirish va ko'chirish tizimidan qoniqish hosil qilmadilar, chunki ular prokuratura hokimiyat tuzilmalarining kuchli siyosiy ta'siri ostida qolayotganini ta'kidlashmoqda.

Muallifning fikriga ko'ra, huquqni muhofaza qilish organlari va ularning xodimlari faoliyatini baholashning aniq mezonlarini belgilash kerak. Bu nafaqat fosh qilingan jinoyatlarning, e'lon qilingan ayblovlarning miqdoriy ko'rsatkichlari bilan emas, balki sifatli baho berishga imkon beradigan indikatorlar bo'lishi kerak. Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichi inson huquqlariga rioya qilish va fuqarolarning ularga bo'lgan ishonch darajasi bo'lishi kerak. Miqdoriy ko'rsatkichlardan, ayniqsa noqonuniy tergov usullari va qiynoqlarni qo'llashni rag'batlantiradigan ko'rsatkichlardan voz kechish lozim.

Dissertant "prokuraturada kasbiy faoliyat bilan bog'liq barcha masalalarni hal

qilish” uchun “prokuratura o‘zini o‘zi boshqarish organi” sifatida “prokuratura kengashi”ni shakllantirish imkoniyati o‘rganar ekan, idoralararo jamoatchilik nazoratini, shu jumladan fuqarolik jamiyati vakillari ishtirokida prokurorlarni tanlash va joylashtirish jarayonini tashkil etish haqida to‘xtalib o‘tadi. Shundan kelib chiqib, muallif bunday kengashning tuzilishi prokurorlarni tayinlash va ozod qilish, muqobil nomzodlar orasidan nomzodlar zahirasini yaratish to‘g‘risida qaror qabul qilishda demokratiya tamoyillarini joriy etish orqali kadrlar masalalari bo‘yicha sub’yektiv, asossiz yoki noxolis qarorlar chiqarish ehtimolini kamaytiradi, deb hisoblaydi.

Jinoyat ishlarini yuritishda prokurorlarni noqonuniy qarorlar qabul qilishga undaydigan va ular tomonidan jinoyat protsessi ishtirokchilarining kafolatlarini ta’minlash bo‘yicha o‘z vazifalarini to‘liq bajarilmasligiga olib keladigan sabablarni ilmiy tadqiq etish mavjud sabablar, zarur shartlar va omillarni bartaraf etish, aniq bir xodimning faoliyati va ma’lum bir prokuratura organining ishini baholash, shuningdek bu muhim davlat tuzilmasi yuzasidan jamiyatning va xalqaro ekspertlarning fikri, jinoyat va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurashda asosiy rollardan birini bajarishi bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

## XULOSA

Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalariga asoslangan holda quyidagi nazariy xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

### **I. Ilmiy-nazariy xulosalar:**

1.1. Shaxs huquqlarining jinoyat-protsessual kafolatlari quyidagi asosiy mezonlarga tayanadi: 1) huquqiy usul va vositalar; 2) tizimli va kompleks xarakterga ega; 3) insonning huquq va qonuniy manfaatlariga rioya etilishiga yo‘naltirilgan; 4) jinoyat ishini yuritishning barcha ishtirokchilariga tatbiq etiladi; 5) milliy va xalqaro huquq bilan mustahkamlangan; 6) inson huquqlari buzilganda ularni tiklash funksiyasi mavjud.

1.2. O‘tkazilgan tadqiqotga asoslangan holda jinoyat protsessida shaxs huquqlari protsessual kafolatlarining konseptual tushunchasi ishlab chiqildi. Unga ko‘ra, jinoyat ishini yuritishda qatnashuvchi barcha ishtirokchilarning faoliyatida qonunlarga rioya etilishini ta’minlashga qaratilgan jinoyat-protsessual va boshqa qonunchilik bilan o‘rnatilgan shartlar, vosita va usullar, shuningdek ushbu ishtirokchilar tomonidan o‘zlarining huquqlarini amalga oshirishga imkon beruvchi, odil sudlovni samarali amalga oshirishga va jinoyat protsessining boshqa maqsadlariga erishish uchun ularni har qanday noqonuniy va asossiz cheklashlardan muhofaza qiluvchi choralar majmui shaxs huquqlari protsessual kafolatlarining mazmunini tashkil etadi.

1.3. Jinoyat protsessida protsessual kafolatlarining zarurati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: 1) shaxslarni lozim darajadagi himoya, xususan sud himoyasi bilan ta’minlash; 2) odil sudlovga bo‘lgan huquq bilan ta’minlash; 3) jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va erkinliklari asossiz ravishda cheklanishiga to‘sqinlik qilish; 4) o‘zlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun ishtirokchilarga teng imkoniyatlar yaratish.

1.4. Protsessual kafolatlarining mazmuni quyidagi mezonlar bilan belgilanadi: birinchidan, ular ishtirokchilarga JPKda nazarda tutilgan huquq va erkinliklarini amalga oshirishlari uchun munosib shart-sharoit yaratishga xizmat qiladi va haqiqatni aniqlashga yo'naltirilgan; ikkinchidan, ular jinoyat protsessida qonuniylik asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi va ishtirokchilarning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyasini ta'minlaydi (noqonuniy va asossiz sudlanishdan, boshqa ishtirokchilarning g'ayriqonuniy harakatlaridan); uchinchidan, ular shaxslarga zarur himoyani, sud orqali himoyalani huquqini ta'minlaydi, o'zlarining huquqlarini himoya qilish uchun teng imkoniyatlarni yaratadi va bu orqali taraflarning tortishuvi uchun munosib sharoitni ta'minlaydi; to'rtinchidan, ular davlat organlari tomonidan jinoyat ishlarini yuritish maqsad va vazifalariga erishish uchun qonunda nazarda tutilgan barcha vakolatlar va tartib-qoidalarining amalga oshirilishi ta'minlaydi; beshinchidan, ular sud xatolarini minimal darajada kamaytirishga xizmat qiluvchi vosita hisoblanadi.

1.5. Tadqiqot natijalari bo'yicha protsessual kafolatlar ikki guruhga ajratildi: umumiy protsessual kafolatlar (sud orqali himoyalani huquqi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining protsessual harakatlari (qarorlari) yoki harakatsizligi ustidan shikoyat qilish kafolatlari, himoyalani huquq ta'minlanishi kafolatlari, jinoyat ishlarini yuritish prinsiplari, o'zboshimchalik bilan shaxsning shaxsiy daxlsizligini cheklashni taqiqlash va boshqalar) hamda maxsus protsessual kafolatlar (jinoyat haqida beriladigan ariza, xabarlarini qabul qilish tartibini belgilovchi protsessual shakl, protsessual harakatlar bo'yicha ish yuritish, qabul qarorlar ustidan shikoyat qilish va ularni bekor qilish).

1.6. Tadqiqot ishida jinoyat protsessida shaxs huquqlari kafolatlarining shakllanish va rivojlanish tarixi Chor Rossiyasining hozirgi O'zbekiston Respublikasi hududiga bostirib kirishidan boshlab, shartli ravishda quyidagi davrlarga bo'lindi:

– 1867-yildan 1917-yilgacha bo'lgan davr – Turkiston o'lkasida harbiy tuzilmalar yordamida boshqaruv tizimi joriy etildi, qozilar va beklik sudlari deyarli ahamiyatga ega bo'lmagan jinoyat ishlarini ko'rish bilan shug'ullanishgan, bunda jinoyat ishlarini sudlar tomonidan ko'rishda aholini toifalarga bo'lish tartibi mavjud bo'lgan va sud ishlarini yuritish barcha protsess ishtirokchilarining huquqlarini ta'minlashga qaratilmagan edi;

– 1917-yildan 1958-yilgacha bo'lgan davr – tergov-huquqiy bo'limlar (ilk dastlabki tergov organlari) tashkil etildi, 1922 yilda shaxs huquqlari himoyasi to'g'risidagi qoidalar nazarda tutilgan, Turkiston ASSR hududida ham amalda bo'lgan RSFSR Jinoyat-protsessual kodeksi qabul qilindi.

1929-yilda yangi JPK qabul qilindi, uning asosiy maqsadi jinoyat ishida ishtirok etish uchun yetarli asoslar mavjud bo'lmasa, fuqarolarni jinoiy javobgarlikka tortish va ta'qib qilishdan ozod qilish bo'lgan. Biroq, 1930-yillarning boshlaridan mazkur kodeks talablariga mutlaqo zid bo'lgan va inson huquqlarini yoppasiga poymol qiluvchi qatag'onlar boshlandi;

– 1959-yildan 1993-yilgacha bo'lgan davr – 1959-yilda O'zbekiston SSRning yangi JPKsi qabul qilindi va u o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan holda mustaqil

O‘zbekiston Respublikasining JPKsi qabul qilingan vaqtga qadar bilan amalda bo‘ldi;

– 1994-yildan 2016-yilgacha bo‘lgan davr – 1994-yilda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi JPKsi qabul qilindi. Bu davrda jinoyat-protsessual qonuniga bir qator yangiliklar kiritildi: apellyasiya instansiyasi, xalqaro standartlardan kelib chiqib shaxs huquqlarining kafolatlanishi shular jumlasidan;

– 2017-yildan hozirgi vaqtga qadar – bu davr O‘zbekiston Respublikasida ikkinchi Prezident Sh.M.Mirziyoevning hokimiyatga kelishi bilan bog‘liq. JPK kassatsiya instansiyasi sudining vakolatlari bilan to‘ldirildi, nazorat instansiyasi tugatildi, sudda ishlarni oshkora ko‘rish prinsipini cheklaydigan qo‘shimcha talablar kiritish taqiqlandi, dalillarni maqbul emas deb topish shartlari, tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida amalga oshirish va videokonferensaloqa rejimida o‘tkazilgan tergov harakatlari jarayoni va natijalarini qayd etish tartibi belgilandi, yangi institutlar – ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlash, dastlabki eshituv va aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv joriy etildi.

1.7. Bugungi kundagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy voqeliklar jinoyat-protsessual qonunchiligining nazariy-huquqiy asoslarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Gap shundaki, 1994-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining negizida mohiyatan ma‘muriy-buyruqbozlik asosidagi iqtisodiyot va shundan kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlar xos bo‘lgan socialistik ruhdagi dialektik-materializm yotadi. Masalan, dialektik-materializm birinchi o‘rinda moddiy haqiqat nazariyasini ilgari suradi. Bu JPKning 22-moddasi birinchi qismida o‘z aksini topgan: surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyat yuz berganligini, uning sodir etilishida kim aybdorligini, shuningdek u bilan bog‘liq barcha holatlarni aniqlashi shart. Jinoyat ishi yurituviga mas‘ul bo‘lgan shaxs ish holatlarini har tomonlama, to‘la va xolisona tekshirishlari kerak, chunki moddiy haqiqat nazariyasida faqat moddiy ma‘nodagi dalillar yordamidagina haqiqat aniqlanishi nazarda tutiladi.

1.8. Jinoyat-protsessual shakl qonunda nazarda tutilgan tartib sifatida quyidagilarga xizmat qiladi: 1) umumiy ma‘noda jinoyat ishlarini yuritishga; 2) jinoyat-protsessual faoliyatning mustaqil bosqichlari amalga oshishiga; 3) surishtiruv organlari, tergovchi, prokuror va sud tomonidan alohida protsessual harakatlarni amalga oshirish va protsessual qarorlar qabul qilish bo‘yicha ish yuritishga; 4) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, himoyachi, jabrlanuvchi tomonidan o‘z huquqlarini amalga oshirish va majburiyatlarini bajarishga.

1.9. Tadqiqot mavzusi doirasida milliy va zamonaviy xorijiy tajribanini o‘rganish asosida jinoyat-protsessual qonunida jinoyat-protsessual shakllarni belgilash bo‘yicha ikki xil yondashuv mavjudligi ta‘kidlanadi:

– jinoyat-protsessual qonuni bilan eng kichik detallargacha, xususan texnik xarakterdagi qoidalargacha tartibga solish (Sobiq SSSR davlatlari) – faktlarni bayonnomalar bilan qayd etish va har qanday protsessual hujjat mazmunining batafsil bayon etilishi (masalan, bayonnoma yuritishning sharligi va unga qo‘yilgan talablar), bu esa nomutaxassislar tomonidan JPK mohiyatini tushunishni qiyinlashtirgan, idoraviy normativ hujjatlarda nazarda tutilishi lozim bo‘lgan

qoidalar bilan kodeksni ortiqcha va keraksiz to'ldirishga sabab bo'lgan;

– qonunda huquqiy munosabatlarning haqiqiy jinoyat-protsessual xarakterini tartibga soluvchi aniq huquqiy normalarni ifodalash (G'arbiy Yevropa davlatlari – Germaniya, Shveysariya, Fransiya) va protsessual hujjatlarga bo'lgan minimal texnik talablar, bu esa jinoyat-protsessual qonunining asosiy maqsadiga xizmat qiladi va bayon etishning soddaligi uni keng aholi qatlamlari uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

1.10. Bir-biriga qarama-qarshi hisoblangan ikki xil jinoyat-protsessual shakllar tendensiyasi rivojlanishini ajratib ko'rsatish mumkin:

– jinoyat-protsessual shaklning soddalashuvi – ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish shaklida sudgacha va sud ishlarini yuritishning tezlashishi, jinoyat ishi bo'yicha dastlabki eshituv, aybiga iqrorlik haqidagi kelishuv, videokonferensaloqa rejimida tergov harakatlarining o'tkazilishi, JPKdan nazorat instansiyasi bilan bog'liq normalarning chiqarib tashlanishi;

– protsessual harakatlar va protsessual qarorlar qabul qilishning murakkablashuvi – dalillarga yo'l qo'yilmasligi, murdani eksqumasiya qilish va pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash haqidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish, ekspertlar komissiyasi tomonidan ekspertiza o'tkazish, taftish, uy qamog'i, kassatsiya instansiyasi sudida ish yuritish.

Fikrimizcha, jinoyat protsessida shaxs huquqlarining himoyalanih darajasi qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyat-protsessual shaklni tanlashda asosiy va muhim mezon bo'lishi lozim, aks holda 1926–1929-yillardagi xatolar takrorlanishi mumkin, o'tmishdagi bu davrda protsessual vositalarni tejash va jinoyat ishlarini ko'rib chiqish muddatlarini qisqartirish maqsadida shaxs huquq va erkinliklariga umuman rioya etilmagan.

1.11. Bizningcha, ta'qib etish emas, balki dalillarni tekshirish sudgacha ish yuritishning asosiy maqsadi bo'lishi kerak. Shundan kelib chiqib, sudgacha ish yuritishda tergov sudyasi institutini joriy etish taklif etiladi. Sababi, jinoiy ta'qibni amalga oshiruvchi organlar inson huquq va erkinliklarini buzmasliklari va ularga to'liq va og'ishmay rioya etishlarini kutish qiyin. Bunday institutning joriy etilishi idoraviy nazorat va proruror nazoratiga qo'shimcha tarzda inson huquq va erkinliklariga rioya etilishining kafolati bo'lib xizmat qiladi. Biroq tergov sudyasining mustaqil sud hokimiyati tizimiga kirishi sudgacha ish yuritish bosqichida shaxs huquq va erkinliklarini amalda ta'minlaydi.

1.12. “Gumon qilinuvchi huquqlarining protsessual kafolatlari” kategoriyasining mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi: jinoyat sodir etganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, ammo bu uni ayblanuvchi tariqasida ishga jalb etish uchun yetarli bo'lmagan shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlovchi, shuningdek mansabdor shaxslarning shu yo'nalishdagi vazifa va majburiyatlarini anglatuvchi birlashgan tizimli normalardan iborat.

1.13. Mutaxassis jinoyat ishiga turli xil ekspertizalar tayinlashdagi maqsad kabi tekshiruv o'tkazish uchun emas o'tkazish emas, balki jinoyat protsessiga kasbiy faoliyat bilan bog'liq ravishda unga ma'lum bo'lgan ob'yektlar to'g'risida vakolatli xulosalar chiqarish uchun jalb qilinadi. Mutaxassisning xulosalari shunchaki zarur

maxsus bilimlarga ega shaxsning fikrlaridir, mantiqdagi fikr “predmet va uning belgisi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasdiqlaydigan yoki inkor etadigan tafakkur shakli”dir.

1.14. O‘zbekiston uchun eng zarur yangi o‘zgarishlardan biri bu tergovga qadar tekshiruv organlari, surishtiruvchilar, tergovchilar va prokurorlarning harakatlari va qarorlari ustidan sudga shikoyat qilishning protsessual tartibi joriy etilishidir. Ushbu yangilik 2018-yilda qabul qilingan Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasida nazarda tutilgan. Biroq bunday shikoyat berish tartibi Jinoyat-protsessual kodeksiga hali kiritilmagan. MDH doirasida mazkur tartib O‘zbekistondan tashqari Belorusiya va Turkmanistonda ham mavjud emas. MDHning boshqa mamlakatlarida sudgacha ish yurituvchi organlarining harakatlari va qarorlari ustidan sudga shikoyat qilishning quyidagi modellaridan foydalanilishini ta’kidlash zarur:

– sudga faqat shikoyat prokuror tomonidan oldindan ko‘rib chiqilgan va shikoyat qiluvchi shaxs ko‘rib chiqish natijalaridan qoniqmagan hollarda shikoyat berish mumkin. Masalan, bunday tartibni Armaniston, Moldova, Tojikistonda kuzatish mumkin;

– prokurorga ham, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sudga ham parallel ravishda shikoyat qilish imkoniyati. Shu bilan birga, ba’zi mamlakatlarda sud predmet bo‘yicha shikoyatlarning ayrim toifalarini ko‘rib chiqadi. Xususan, bu Ozarbayjon, Rossiya, Qozog‘iston Jinoyat-protsessual kodekslarida nazarda tutilgan;

– shikoyatni faqat sudga (tergov sudyasiga) berish. Bunday tartib, masalan, Ukrainaning Jinoyat-protsessual kodeksida mustahkamlangan.

1.15. Xalqaro ekspertlarning fikriga ko‘ra, kelajakda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarining ishonchli kafolatlarini yaratishni ta’minlaydigan xalqaro huquq standartlarga muvofiq jinoyat protsessi muammolarini hal qilishda prokuraturaning roli, o‘rni va ahamiyatini tubdan oshirishga imkon beradigan O‘zbekistonda prokuratura faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha asosiy tavsiyalarning mazmunini sinchkovlik bilan o‘rganish maqsadga muvofiq. Xalqaro ekspertlar prokuratura organlarini shakllantirish tartibi, xodimlarni tanlash, joylashtirish va ko‘chirish tizimidan qoniqish hosil qilmadilar, chunki ularning fikriga ko‘ra, prokuratura hokimiyat tuzilmalarining kuchli siyosiy ta’siri ostida qolmoqda.

1.16. Huquqni muhofaza qilish organlari va ularning xodimlari faoliyatini baholashning aniq mezonlarini belgilash kerak. Bu nafaqat fosh qilingan jinoyatlarning, e’lon qilingan ayblovlarning miqdoriy ko‘rsatkichlari bilan emas, balki sifatli baho berishga imkon beradigan indikatorlar bo‘lishi kerak. Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichi inson huquqlariga rioya qilish va fuqarolarning ularga bo‘lgan ishonch darajasi bo‘lishi zarur. Miqdoriy ko‘rsatkichlardan, ayniqsa noqonuniy tergov usullari va qiynoqlarni qo‘llashni rag‘batlantiradigan ko‘rsatkichlardan voz kechish lozim.

1.17. “Prokuraturada kasbiy faoliyat bilan bog‘liq barcha masalalarni hal qilish” uchun “prokuratura o‘zini o‘zi boshqarish organi” sifatida “prokuratura kengashi”ni shakllantirish imkoniyati o‘rganilmoqda. Bu yerda biz idoralararo jamoatchilik nazoratini, shu jumladan fuqarolik jamiyati vakillari ishtirokida

prokurorlarni tanlash va joylashtirish jarayonini tashkil etish haqida gapiryapmiz. Shu munosabat bilan, biz ushbu tavsiya prokurorlarni tayinlash va ozod qilish, muqobil nomzodlar orasidan nomzodlar zahirasini yaratish to'g'risida qaror qabul qilishda demokratiya tamoyillarini joriy etish orqali kadrlar masalalari bo'yicha sub'yektiv, asossiz yoki noxolis qarorlar chiqarish ehtimolini kamaytiradi, deb hisoblaymiz.

1.18. Jinoyat ishlarini yuritishda prokurorlarni noqonuniy qarorlar qabul qilishga undaydigan va ular tomonidan jinoyat protsessi ishtirokchilarining kafolatlarini ta'minlash bo'yicha o'z vazifalarini to'liq bajarilmasligiga olib keladigan sabablarni ilmiy tadqiq etish mavjud sabablar, zarur shartlar va omillarni bartaraf etish, aniq bir xodimning faoliyati va ma'lum bir prokuratura organining ishini baholash, shuningdek bu muhim davlat tuzilmasi yuzasidan jamiyatning va xalqaro ekspertlarning fikri, jinoyat va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurashda asosiy rollardan birini bajarishi bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

## **II. O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishga oid takliflar**

2.1. O'zbekiston Respublikasi jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish kosepsiyasidan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari surildi:

O'zbekiston Respublikasi JPK 17-moddasini quyidagi mazmundagi 4-qism bilan to'ldirish taklif etildi:

“ishda ishtirok etuvchi shaxsning sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi harakatlari ustidan murojaati bo'yicha ayblilik prezumpsiyasi amal qiladi, basharti ular tomonidan aksi isbotlanmasa”;

O'zbekiston Respublikasi JPKni quyidagi mazmundagi 27<sup>1</sup>-modda bilan to'ldirish taklif etildi:

### **“27<sup>1</sup>-modda. Oqilona muddatlarga rioya etish prinsipi**

Barcha jinoyat-protsessual harakatlar vakolatli mansabdor shaxslar tomonidan oqilona muddatlarda amalga oshiriladi.

Jinoyat-protsessual harakatlar muddatlarini uzaytirishga yo'l qo'yilmaydi, ushbu Kodeksda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

Agar shaxs qamoq yoki uy qamog'ida saqlanayotgan bo'lsa, shuningdek voyaga yetmagan bo'lsa, sudda jinoyat ishlarini yuritish ustuvor va kechiktirib bo'lmaydigan tartibda olib boriladi.

Jinoyat-protsessual muddatlar buzilishi holatlari bo'yicha asoslar mavjud bo'lganda, jinoyat protsessi ishtirokchilari sudga ishni tezlashtirish talabi bilan murojaat qilishga haqli. Sud arizani qabul qilib, uni taraflar ishtirokisiz 5 kun ichida ko'rib chiqadi va jinoyat ishini muhokama qilishning aniq muddatini belgilash to'g'risida ajrim chiqaradi yoxud arizani rad etadi”;

O'zbekiston Respublikasi JPKni quyidagi mazmundagi 15<sup>1</sup>-modda bilan to'ldirish taklif etildi:

### **“15<sup>1</sup>-modda. Jinoiy ta'qibdan voz kechish**

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda, sud va prokuror jinoiy ta'qibdan voz

kechishi shart”;

O‘zbekiston Respublikasi JPKni quyidagi mazmundagi 18<sup>1</sup>-modda bilan to‘ldirish taklif etildi:

**“18<sup>1</sup>-modda. Jinoyat protsessida shaxs huquq va erkinliklarini cheklashning mutanosibliigi**

Majburlov va protsessual javobgarlik choralari qo‘llash ushbu Kodeks maqsadlariga, shaxs sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishga mos bo‘lishi hamda shaxs tuzalish yo‘liga o‘tishi uchun yetarli bo‘lishi lozim.

Sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishga nomuvofiq majburlov va protsessual javobgarlik choralari tayinlash taqiqlanadi”.

2.2. O‘zbekiston Respublikasi JPKni 23-moddasiga quyidagi mazmundagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish taklif qilindi:

1) 23-moddaning 1-qismidagi “gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi” so‘zlarini “har qanday shaxs” so‘zi bilan almashtirish;

2) 23-moddaning 2-qismini “Mazkur shaxslar ushbu Kodeksda belgilangan tartibda isbot qilishda ishtirok etishlari mumkin” jumlasini bilan to‘ldirish.

2.3. Jinoyat ishida ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash maqsadida: (1) tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov organlari xodimlari tomonidan shaxsni g‘ayriqonuniy harakatlar sodir etishga undash natijasida olingan ma‘lumotlar sud hukmida dalil sifatida tan olinmasligi; (2) ushlangan gumon qilinuvchining yoki ayblanuvchining yaqin qarindoshlarini protsess ishtirokchisi sifatida jalb qilish uchun asoslar mavjud bo‘lmagan taqdirda, ularni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chaqirish va so‘roq qilishni taqiqlash taklif etiladi.

2.4. Gumon qilinuvchi va ayblanuvchi shaxsning nimada gumon qilinayotganligi(ayblanayotganligi)ni bilish huquqiga oid O‘zbekiston Respublikasi JPK normalari unifikatsiyalash maqsadida ikki xil variant taklif etiladi:

a) JPKda jinoyat protsessi ishtirokchilarining majburiyatlarini nazarda tutilgan bir-birini takrorlovchi qoidalarni, xususan JPK 111-moddasi 2-qismini chiqarib tashlash (surishtiruvchi, tergovchi harakatlari);

b) O‘zbekiston Respublikasi JPKning 111-moddasi 2-qismini quyidagi mazmundagi 3)<sup>1</sup>-band bilan to‘ldirish:

“3)<sup>1</sup> ayblanuvchiga qanday jinoyat sodir etishda ayblanayotganligini e‘lon qiladi”.

2.5. Milliy jinoyat-protsessual qonunchiligi gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga guvoh (ham unga qarshi ko‘rsatuv bergan, ham u taklif qilgan)larga savol berish huquqini beruvchi norma bilan to‘ldirilishi zarur. Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 46 va 48-moddalari birinchi qismlariga “surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan tergov harakatlarida ishtirok etish;” degan so‘zlardan keyin “gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, guvoh, ekspert, mutaxassislariga savollar berishi” so‘zlari bilan to‘ldirish taklif qilinmoqda.

2.6. Jinoyat protsessi ishtirokchilari huquqlarining lozim darajadagi kafolatini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi

22-moddasi ikkinchi qismini quyidagi mazmundagi jumla bilan to'ldirish taklif etilmoqda:

“Jinoyat protsessi ishtirokchilarining ushbu Kodeksda nazarda tutilgan huquqlarini amalga oshirishlari natijasida chiqarilgan salbiy xulosalar va fikrlar jinoyat protsessining ushbu ishtirokchilariga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas”.

2.7. Xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilish va o'rganish asosida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 54-moddasi birinchi qismidagi birinchi jumlaning quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq:

“Agar jinoyat, shuningdek aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi jismoniy shaxsga ma'naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar yetkazgan, shuningdek yuridik shaxsning mulki yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazgan deb hisoblash uchun asos bo'ladigan dalillar mavjud bo'lsa, bunday shaxs jabrlanuvchi sifatida e'tirof etiladi”.

2.8. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 55-moddasining birinchi qismiga quyidagi o'zgartirishlar kiritish taklif etilmoqda:

1) “ko'rsatuv berish” degan so'zlarni chiqarib tashlash;

2) “jabrlanuvchi haqli” degan so'zlardan keyin “ayblanuvchiga qo'yilgan ayblov haqida bilishga” degan so'zlar bilan to'ldirish;

3) “iltimosnoma berish va rad qilish” degan so'zlardan keyin “jabrlanuvchi sifatida birinchi so'roq tugagandan so'ng darhol jinoyat ishi materiallarida mavjud bo'lgan barcha sud ekspertizasi tayinlash to'g'risidagi qarorlar va ekspert xulosalari (xulosani berishning mumkin emasligi to'g'risidagi bayonnomalar) bilan tanishib chiqish” so'zlari bilan to'ldirish;

4) “surishtiruv yoki dastlabki tergov tamom bo'lganidan so'ng ishning barcha materiallari bilan tanishish” degan so'zlarni “jabrlanuvchi sifatida jinoyat ishiga jalb qilingan paytdan boshlab ish materiallari bilan tanishish” degan so'zlar bilan almashtirish.;

5) “surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan tergov harakatlarida ishtirok etish” degan so'zlardan keyin “bir tergovchi (surishtiruvchi) ish yurituvidan boshqasiga topshirilganligi to'g'risida xabardor qilinishi lozim” degan so'zlar bilan to'ldirish”.

2.9. Jinoyat-protsessual kodeksining 179-moddasiga quyidagi o'zgartirishlar kiritish taklif etilmoqda.

1) moddaning nomini quyidagi tahrirda bayon etish:

**“179-modda. Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining, jabrlanuvchining ekspertiza tayinlash va o'tkazishdagi huquqlari”;**

2) 179-moddaning birinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish:

“Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi ekspertizani tayinlash va o'tkazishda quyidagi huquqlarga ega:”

2.10. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 549-moddasi ikkinchi qismining birinchi jumlasini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

“Qonuniy vakilning ishda ishtirok etishiga voyaga yetmagan shaxsning huquq va erkinliklariga daxldor protsessual harakatlar amalga oshirilgan paytdan boshlab, unga nisbatan jinoyat to'g'risidagi xabar tekshirilayotgan paytdan boshlab,

shuningdek surishtiruvchi yoki tergovchining qarori bo'yicha voyaga yetmagan shaxsni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida birinchi so'roq qilish paytidan boshlab yo'l qo'yiladi".

2.11. Agar o'zi vakillik qilayotgan shaxs bilan qonuniy vakilning manfaatlari mos kelmasa, ishda o'zi vakillik qilayotgan tarafdin ishtirok etish uchun qaror yoki ajrim bilan advokat tayinlanadi. Biroq bu holatda qonuniy vakilni ishda ishtirok etishdan chetlashtirish haqida hech qanday qoida mavjud emas. Jinoyat-protsessual qonunchiligidagi mazkur bo'shliqni kodeksning 60-moddasi to'rtinchi qismiga quyidagi mazmundagi qo'shimcha kiritish yo'li bilan bartaraf etish taklif etilmoqda:

“Bunday holatda qonuniy vakil ishda ishtirok etishdan chetlashtiriladi”.

2.12. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida “qonuniy vakil” tushunchasi turlicha talqin qilingan. Masalan: 1) kodeksning 60-61 moddalari mazmuniga ko'ra, qonuniy vakil deganda jinoyat ishiga qonuniy vakil sifatida jalb qilingan shaxs (ota-ona, ularning o'rnini bosuvchi shaxslar, yoshi katta qarindosh, voyaga etmagan ishonch bildirgan boshqa shaxs hamda tashkilot va muassasalar vakillari) tushuniladi. 2) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 50-moddasi birinchi qismining mazmuni doirasida jinoyat ishida ishtirok etishiga yo'l qo'yilmagan qonuniy vakil himoyachini taklif qilishi mumkin. Kodeksning 49-moddasi uchinchi qismiga ko'ra, qonuniy vakillar himoyachi sifatida ishtirok etishlari mumkin – bu qoidadan tabiiy savol tug'iladi – qonuniy vakil himoyachi sifatida ishtirok etishi uchun qanday maqomda bo'lishi kerak? Shu munosabat bilan “qonuniy vakil” kategoriyasini unifikatsiya qilish va u muayyan protsessual harakatlarni amalga oshirish uchun qanday maqomda bo'lishi kerakligini aniq belgilash taklif etiladi.

2.13. Guvohning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga oid qonunchilikda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligiga o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 66-moddasi birinchi qismidagi “Guvoh” degan so'zlardan keyin “qaysi jinoyat ishida guvoh sifatida jalb etilganligini bilishga haqli” degan so'zlar bilan to'ldirish taklif etiladi.

2.14. O'zbekiston Respublikasining “Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonuniga quyidagi o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish taklif etiladi:

1) 6-moddaning birinchi qismini 9-band bilan to'ldirish va uni quyidagi mazmunda bayon etish:

“9) Himoya qilinayotgan shaxsning shaxsiy ma'lumotlarini oshkor qilmaslik”;

2) 6-moddani quyidagi mazmundagi uchinchi qism bilan to'ldirish:

“Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan xavfsizlik choralari himoya qilinayotgan shaxsga nisbatan tahdid mavjud bo'lgan hollarda qo'llaniladi”;

3) 11-moddaning birinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish:

“himoya qilinayotgan shaxslarning roziligi bilan yoki ularning iltimosiga binoan ular boshqa vaqtinchalik yoki doimiy yashash joyiga, boshqa vaqtinchalik yoki doimiy ishga (xizmatga) yoki boshqa o'qish joyiga, shu jumladan O'zbekiston

Respublikasidan tashqariga ko‘chirilishi mumkin”;

4) quyidagi mazmundagi 13<sup>1</sup>-modda bilan to‘ldirish:

**“13<sup>1</sup>-modda. Himoya qilinayotgan shaxsning shaxsiy ma’lumotlarini oshkor qilmaslik**

Himoya qilinayotgan shaxsning shaxsiy ma’lumotlari butun jinoyat protsessi davomida va u tugagandan so‘ng ham oshkor qilinmaslik kerak. Sud majlisida guvohlik berishda jinoyat protsessining barcha ishtirokchilari guvohni vizual kuzatishiga yo‘l qo‘yilmaydi”.

2.15. Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksiga quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish zarur:

1) O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 74-moddasi ikkinchi qismida ko‘rsatilgan xolisning majburiyatlaridan “tergov harakatlarida ishtirok etish” so‘zlarini chiqarib tashlash;

2) 73-moddaning ikkinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish:

“Tergov harakatlarini yuritishda ishtirok etish uchun ishning oqibatidan manfaatdor bo‘lmagan, kamida ikki nafar voyaga yetgan fuqaro xolis sifida chaqirilishi lozim. Tergov harakatini boshlashdan oldin surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror xolislariga tergov harakatining maqsadini, ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi, ulardan tergov harakatlarida ishtirok etishlari bo‘yicha rozilik oladi”;

3) 73-moddani quyidagi mazmundagi uchinchi qismi bilan to‘ldirish:

“Agar xolis jalb qilishning imkoni bo‘lmasa, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror bu haqda tergov harakati bayonnomasi yozib qo‘yadi, tergov harakati o‘tkazilishi va uning natijalarini texnik vositalaridan foydalangan holda qayd etadi”.

**III. Huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan takliflar**

3.1. JPKning 91<sup>1</sup>-moddasiga ko‘ra, tergov harakatlari, xususan so‘roq qilish videokonferensaloqa yordamida amalga oshirilishi mumkin. Ammo mazkur moddaga muvofiq videokonferensaloqa faqat har xil ma’muriy-hududiy birliklarda joylashgan sudlar va tergov organlari o‘rtasida tashkil qilinishi mumkin. Bundan tashqari, videokonferensaloqa rejimiga nisbatan yuqori texnik talablar qo‘yilgan. Tasvir sifati Full HD formatida bo‘lishi kerak. Bu esa, o‘z navbatida, yuqori tezlikdagi Internetni talab etadi. Tergov organlarida bunday texnik imkoniyatlar mavjud emas. Bunga qo‘shimcha ravishda tergov izolyatorlari texnik jihatdan karantin shartlariga mos kelmaydi. Himoyalangan plastik ekranlar yo‘q, muzokaralar xonalari o‘rtasida telefon aloqasi mavjud emas. Xavfsizlik choralari sun‘iy ravishda kuchaytirilgan, advokatlarning o‘z himoyalari ostidagi shaxs bilan munosabatlari cheklangan.

3.2. Jinoyat ishlarini yuritish ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash tizimini kuchaytirish talab etiladi. Xususan, imkoniyati cheklangan insonlarning jinoyat protsessida ishtirok etishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish zarur. Imkoniyati cheklangan shaxslarning yuridik amaliyotda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Jumladan, tergov va sud organlari Brayl alifbosidagi dasturiy ta‘minotlar, printerlar va boshqa texnik vositalar bilan ta‘minlanishi kerak. Shu bilan birga imo-ishora tiliga tarjima qilish

bilan bog‘liq muammoni hal etish zarur. Bu haqidagi normalar JPKning 20-moddasida mazmunida aks etishi kerak. Sud va tergov binolari ham maxsus panduslar bilan jihozlanishi lozim.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.07/13.05.20.Yu.22.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЮРИДИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ  
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**БАЗАРОВА ДИЛДОРА БАХАДИРОВНА**

**ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ ГАРАНТИИ ПРАВ ЛИЧНОСТИ  
В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ**

12.00.09 – Уголовный процесс. Криминалистика,  
оперативно-розыскное право и судебная экспертиза

**АВТОРЕФЕРАТ**  
диссертации доктора юридических наук (Doctor of Science)

**Ташкент – 2022**

Тема диссертации доктора наук (Doctor of Science) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № В2017.2.DSc/Yu41.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном юридическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета ([www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Официальные оппоненты:**

**Пулатов Бахтиёр Халилович**

доктор юридических наук, профессор

**Рахмонова Сурайё Махмудовна**

доктор юридических наук, профессор

**Муродов Бахтиёржон Баходирович**

доктор юридических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Каракалпакский государственный университет имени Бердаха**

Защита диссертации состоится «16» января 2023 года в 14:00 на заседании Научного совета DSc.07/13.05.20.Yu.22.03 при Ташкентском государственном юридическом университете (Адрес: 100047, г. Ташкент, улица Сайилгох, 35. Тел.: (99871) 233-66-36; факс: (99871) 233-37-48; e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного юридического университета (зарегистрировано за № 1097). (Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 13. Тел.: (99871) 233-66-36).

Автореферат диссертации разослан «30» декабря 2022 года.  
(протокол реестра № 11 от «30» декабря 2022 года).

**Н.С. Салаев**

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук (DSc), профессор

**М.М. Курбанов**

Научный секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по юридическим наукам (PhD)

**М.К. Уразалиев**

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук (DSc), профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире в условиях глобализации политических процессов, развития демократии, усиления защиты прав человека, обеспечения соблюдения законных интересов гражданина актуальным становится вопрос об обеспечении уголовно-процессуальных гарантий прав личности. По статистическим данным Республика Узбекистан занимает 39 место в мире по безопасности и 104 место по преступности, в то время как Катар, Объединенные Арабские Эмираты и Тайвань находятся на первых местах по индексу безопасности<sup>7</sup>. Улучшение показателей безопасности нашей страны, путем укрепления прав личности при рассмотрении уголовных дел является первостепенной задачей.

В мире сегодня все большую актуальность приобретают вопросы обеспечения действенной и надежной защиты прав и свобод и интересов граждан в уголовном процессе, упрощения уголовно-процессуальной формы путем введения новых форм и процедур, устранения обстоятельств, препятствующих обеспечению законности в досудебном и судебном процессе по уголовным делам, экономии средств правоохранительных органов и других участников уголовного процесса, внедрения современных информационно-коммуникационных технологий в судебно-следственную деятельность.

Важное значение по теме диссертации приобретают вопросы мирового урегулирования уголовного дела без судебного разбирательства, заключение соглашения с обвиняемым о признании им своей вины и таким образом освобождение от наказания либо его смягчение, расширение принципа соблюдения разумных сроков для рассмотрения уголовного дела, развитие принципа виновности органов, осуществляющих уголовное судопроизводство при совершении ими противоправных действий в отношении лиц, участвующих в деле, предоставления места жительства за границей при осуществлении программы защиты свидетелей, обезличивания участников уголовного судопроизводства, и в целом упрощения процессуальной формы.

В нашей республике ведется полномасштабная работа по укреплению законности при расследовании преступлений, проведению следственных действий и судебного разбирательства исключительно в правовом поле, упрощению уголовно-процессуальных процедур, в частности внедряется практика заключения соглашения о признании вины, предварительное закрепление показаний, обеспечение защиты потерпевшего и свидетеля при наличии реальной угрозы их жизни, имуществу и членам их семей. По данным Государственного комитета Республики Узбекистан по статистике, ежегодно к уголовной ответственности в стране привлекаются порядка 90 тысяч граждан<sup>8</sup>, а по данным Верховного суда Республики Узбекистан за 9 месяцев 2022 года было рассмотрено 43787 уголовных дел в отношении

---

<sup>7</sup> Crime Index by Country 2022 Mid-Year. [https://www.numbeo.com/crime/rankings\\_by\\_country.jsp](https://www.numbeo.com/crime/rankings_by_country.jsp)

<sup>8</sup> <https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/crime-and-justice>

56267 лиц, из которых 677 были оправданы и реабилитированы<sup>9</sup>. Кроме того, в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы предусматривается последовательное продолжение политики совершенствования уголовного, уголовно-процессуального и уголовно-исполнительного законодательства, широкое внедрение принципа гуманности в систему уголовных наказаний и их исполнения, а также совершенствование превентивных механизмов по предупреждению пыток и принятие специального закона в данном направлении<sup>10</sup>. По этой причине, актуальным является проведение комплексного научного исследования в сфере обеспечения прав личности в уголовном судопроизводстве.

Данное диссертационное исследование в определенной мере послужит реализации задач, предусмотренных в Уголовном процессуальном кодексе Республики Узбекистан (1994), Уголовном кодексе Республики Узбекистан (1994), Законах Республики Узбекистан «О защите потерпевших, свидетелей и иных участников уголовного процесса» (2019), «О судах» (2021), Указе Президента Республики Узбекистан «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы» №УП–60 (2022), Постановлении Президента Республики Узбекистан «О мерах по кардинальному совершенствованию системы уголовного и уголовно-процессуального законодательства» № ПП–3723 (2018) и иных актах законодательства в данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информированного общества и демократического государства и способы их реализации».

#### **Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации<sup>11</sup>.**

Научные исследования по вопросам процессуальных гарантий прав личности в уголовном процессе проводятся ведущими зарубежными исследовательскими центрами и международными организациями, среди которых University of Pennsylvania Carey Law School, Indiana University Robert H. McKinney School of Law, University of California, University of San Francisco - School of Law, New York University School of Law, Harvard Law School (США), Canadian Bar Association (Канада), University of Haifa (Израиль), Академия управления МВД России, Казанский юридический институт МВД России, Самарский государственный университет (Российская Федерация).

<sup>9</sup> <https://sud.uz/ru/2010-4/>

<sup>10</sup> Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы» от 28 января 2022 года №УП-60 // Национальная база данных законодательства, 29.01.2022 г., № 06/22/60/0082.

<sup>11</sup> Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации: <https://www.law.upenn.edu/>, <https://mckinneylaw.iu.edu/>, <https://www.universityofcalifornia.edu/>, <https://www.usfca.edu/law>, <https://www.law.nyu.edu/>, <https://hls.harvard.edu>, <https://www.cba.org/Home>, <https://www.haifa.ac.il/?lang=en>, <https://xn--80a.xn--b1aew.xn--p1ai/>, <http://eioskuimvd.ru/>, <https://ssau.ru/> и на основании других источников.

На основании проведенной научно-исследовательской работы по процессуальным гарантиям прав личности в уголовном процессе были получены нижеследующие результаты: проанализированы этика сотрудников адвокатуры (University of San Francisco - School of Law), раскрыты особенности участия адвоката в уголовном процессе (University of California), изучены отношения адвоката с доверителем, и гарантия соблюдения адвокатской тайны (Canadian Bar Association), обоснованы гарантии прав участия адвоката в уголовном процессе (Indiana University Robert H. McKinney School of Law), исследованы предварительное заключение и принцип невинности (University of Pennsylvania Carey Law School), проанализированы проблемы соглашения о признании вины и защита прав потерпевшего (Harvard Law School), изучены этическая сторона признания вины и заключение соглашения (University of Haifa), разработана система сдержек и противовесов как способ обеспечения независимости судей (New York University School of Law), проанализировано осуществление принципа презумпции невинности при особом порядке судебного разбирательства (Академия управления МВД России), обосновано добровольное заключение соглашения о признании вины (Самарский государственный университет), изучен учет мнения потерпевшего при назначении наказания (Казанский юридический институт МВД России).

В уголовном процессе проводятся исследования процессуальных гарантий прав личности по целому ряду приоритетных направлений, в том числе: расширение процессуальных гарантий прав личности путем имплементации международных стандартов в национальное законодательство; определение соотношения, границы обеспечения уголовно-процессуальной формы и прав личности; уточнение условий отказа от уголовного преследования; обеспечение на практике принципа соразмерности при назначении наказания.

**Степень изученности проблемы.** Научные исследования по обеспечению процессуальных прав личности в уголовном процессе так или иначе рассматривались в работах таких отечественных ученых-процессуалистов как Г.Абдумажидов, З.Ф.Иногомжонов, Г.З.Тулаганова, У.А.Тухташева, К.К.Маткаримов, М.Махбубов, Ф.М.Мухитдинов, Д.Р.Тураева, Н.Н.Хайдаров, Н.Н.Хайриев, Н.М.Кушаев, Б.Б.Муродов, Ш.Ф.Файзиев, Б.Б.Хидоятов, С.М.Ачилов, И.Б.Джураев<sup>12</sup>.

